



TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI

¹Sevinch Sanayeva

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Pedagogika va Psixologiya
yo'nalishi 14-guruh talabasi sevinchsanayeva10@gmail.com

²F.D.Shermanova

Toshkent amaliy fanlar universiteti. Informatika kafedrası katta
o'qituvchisi. shermanova.feruza@bk.ru

ARTICLE INFO

Received: 01st April 2023

Accepted: 14th April 2023

Online: 25th April 2023

KEY WORDS

<i>Depressiya</i>	<i>terminlar,</i>
<i>treninglar,</i>	<i>psixologik</i>
<i>yondashuv,</i>	<i>metodikalar,</i>
<i>ocherklar,</i>	<i>amaliyot,</i>
<i>assotsiatsiya.</i>	

ABSTRACT

Ushbu maqolada hozirgi kunda pedagogika va psixologiyani rivojlanishi, insonlarda ijobiy xislatlarni paydo qilishda psixologiyani o'rni, insonning ma'naviy-amaliy shaxs sifatida rivojlanishi, komil inson shakllanishi konuniyatlari haqida keltirilgan.

KIRISH

Hozirgi taraqqiy etib borayotgan zamonda pedagogika va psixologiya sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining nafaqat psixolog kadrlar va boshqa kasb egalari oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri – malakali mutaxassislar sifatida o'zligini o'z qobiliyatlari, individualligini bilgan holda atrofida mehnatini oqilona tashkil etish, mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsatishdir. Bu o'rinda inson ruhiyati qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya fanining o'rni kattadir.

Ma'lumki har bir yosh davrining psixologik xususiyatini hisobga olgan holda ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir o'tkazish insonda o'z-o'zini anglashni vujudga keltiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Psixologiya sohasi va psixologiya termini o'zi nima ekanligini o'sha tushunchani o'zini insonlarga ijobiy ta'sir ettirish psixologiya fanining maqsadi desam mubolag'a bo'lmaydi. P.I.Ivanovning „Psixologiya“ kitobi o'zbek tiliga tarjima qilinadi va u darslik sifatida kirib kelgan. Bolalar psixologiyasida A.A.Asqarxo'jayev, P.I.Leventuyev, M.Vohidov, E.CHudnovskiylarning „Bolalar psixologiyasining ocherklari“qo'llanmasi chop etildi. G'oziyevning „Umumiy psixologiya“kitobini tahlil qiladigan bo'lsak uning 4-qismida 2ta ilova bo'lib 1-ilovasi „Psixologiya tarixidan“deb nomlanadi. Dastavval, psixologiyani o'rganishdan oldin uning kelib chiqish tarixi haqida bilish lozim.

Butunjahon miqyosida, shu jumladan Respublikamizda qaysi soha mutaxassislari bo'lishidan qat'i nazar ularni psixologik bilimlar bilan qurollantirish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston oliy maktablarida psixologiya o'quv fani sifatida 1928-



yildan o'qitib kelinmoqda. Mazkur soha bo'yicha mutaxassislar tayyorlash maqsadida O'rta Osiyo Davlat Universitetida 1938- yilda logika va psixologiya bo'limi ochildi.

Ma'lumki, pedagogika va psixologiya sohasi tarbiya-ta'limning inson rivoji, shaxs kamoli, mutaxassis shakllanishida ta'lim tazimi, uning ruhiy holatini o'z ichiga olmaydigan etnik-antropologik, genetik-tarixiylik, mustaqillik, tabiiy, ekologik, intuitiv, ruhiy-xissiy bilish, rivojlanish, komillik omillariga suyanadi. Bundan tashqari, pedagogika va psixologiya sohasi oldiga yangicha fikrlash, yangicha tafakkur, milliy mafkuraning keng kamrovli sifatlarini shakllantirish vazifalari qo'yildi.

Pedagogika va psixologiya haqli ravishda tabiatning oliy mahsuli, insonning ma'naviy-amaliy shaxs sifatida rivojlanishi, komil inson shakllanishi konuniyatlarini, mutaxassislik asoslarini o'rgatuvchi ustuvor fanlarga aylandi. Inson o'zligini anglashga yangicha yondashishi faqat uning o'ziga, jamiyatga, tabiatga munosabatlarida emas, balki uning faoliyatida nazariy-amaliy o'zgarishlar sodir bo'lib, u yangicha fikrlash asoslarini egallashga qadam qo'ydi.

NATIJALAR

Bugungi kunda insonlardagi muammoli vaziyatlar ularni depressiya tushkunlik holatlardan olib chiqish ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish maqsadida bir qancha maslahatli treninglar, kurslar yo'lga qo'yilganligi yuqoridagi so'zlarimizning yorqin ifodasidir.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish zarurki, kundalik turmush psixologik bilimlar aksariyat xollarda farosatilik, sezgirlik, topkirlik xususiyati asosida intuitiv tarzda namoyon bo'lishi kuzatiladi. Buning asosiy sababi shundaki: Ko'pincha egallanastgan bilimlar hayotiy tajribada uchragan voqelikka nisbatan munosabat, amaliy sinovlar negizida vujudga keladi, keyinchalik undagi ayrim dag'allik va nuqsonlar silliqilanadi. Shuning uchun bunday psixologik bilimlar maxsus uslublar yordamida qabul qilinadi, ammo mantiqiy taxlil qilinmasdan turib to'gridan-to'g'ri muomala tizimiga uzatiladi. Turmushda uchraydigan go'daklarning xar xil shakldagi xarxashalari va ularning maqsadga erishish istaklari kundalik xayotiy tajribalarning sinovlarida toblanadi, sezgir bolalar katta yoshdagi odamlarning zaif va mustahkam tomonlarini puxta o'rganadilar. Bu borada muayyan qarorga kelganlaridan so'ng xar qaysi shaxsga yakkaxol yondashishni amaliyotga tadbqiq qilib ko'radilar. Ana shu tariqa amaliy psixologik bilimlar ma'lum tizimga kiritiladi. ularning barqaror xususiyat kasb etganlari esa turmushda qo'llanila boshlanadi.

MUHOKAMA

Agar kishi o'z hayot yo'lini topa olsa, uning ongi mustaqil rivojlanib borib, ong osti yo'nalishiga tusha olsa, xuddi to'lqinlarning mos kelishi kabi insonda ma'naviy va ruxiy mutanosiblik sodir bo'lib, u mukammal kamolot yo'liga kiradi. Ong osti va ong uyg'unligi vijdon yordamida amalga oshiriladi. Vijdon kishilarning ongi, ong osti va qalbi mutanosibligini amalga oshiruvchi ma'naviy-insoniy tuyg'u, sifat, agar vijdonni sodda qilib tushuntirish lozim bo'lsa, vijdon-insonning qalb amri bilan bajargan ishlari (faoliyati)ning ruxiy mezoni.

Ong osti - dunyoviy va xayotiy haqiqat asosidagi inson shaxsiy faoliyatining ma'naviy-ruhiy yo'li. **Inson ongi** - uning idroki, aqli orkali xayotiy va dunyoviy haqiqatni fahmlash asosida ma'naviy istiqbolli faoliyati darajasi. **Fahmlash-anglash** - biror haqiqatni qalban, ruxan fikriy sezish. **Inson fikri** - o'z ongi va idroki asosida hayoti va dunyoviy narsalar, jarayonlar xaqidagi mushoxadaviy faoliyat. **Aql** - kishining o'z idroki, qalbi va fikri asosida



dunyoviy, xayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai nazardan amal qilish. **Inson qalbi** - shaxsiy ong, ma'naviyat uzviyligi asosida insonni xissiy va amaliy faoliyatga undovchi kuch. U vijdon, ong, fikr bilan uyg'unlashib, qalb nigohi, ko'zi va quvvatiga aylanadi. **Inson ruxi** - insonni xar qanday to'siklardan olib o'ta oladigan, uni ulug' ezgu ishlarga boshlovchi ma'naviy quvvat hisoblanadi.

XULOSA

Bizningcha, oliy ta'lim muassasalari uchun pedagogika va psixologiya kurslarini o'qitishni quyidagi talablar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- 1) fan asoslarini ongli egallashni va talabalarning intellektual ma'naviy rivojlanishlari bilan qo'shib olib borishning pedagogik va psixologik asoslarini ochib berish;
- 2) talabalarni insoniyat erishgan boy qadriyatlarga, milliy goya va milliy mafkuraga suyangan xolda, pedagogika va psixologiya fanlarining o'ziga xos nazariy-amaliy asoslari bilan qurollantirish;
- 3) bola, o'quvchi, talaba tushunchalarini abstrakt holda emas, balki ma'naviy sifatlarni ta'riflagan holda, bu sifatlarni yoshga, falsafiy, fiziologik, psixologik va genetik asoslarga bog'liq xolda shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish. Bu ishni har bir fanning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi jihatlarini ochish orqali amalga oshirish lozim. Bunda xalq pedagogikasi va etnopedagogikadan keng foydalanish;

References:

1. E.G'.G'oziyev, „Umumiy psixologiya“ (2021).
2. B.M.Umarov, „Psixologiya“ (2012).
3. E.G'.G'oziyev, „Umumiy psixologiya“ (472-478-betlar).
4. Yu.G'. Maxmudov (va boshq.) Pedagogika va psixologiya: o'quv ko'llanma; T.: DIZAYNPRESS, 2011. 236 b